

Yong'in sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilish bo'yicha o'quv mashg'uloti o'tkazildi

// 10 July 2024 yil

<https://special.uzkmyosanoat.uz/oz/press/news/yong-in-sodir-bo-lganda-to-g-ri-harakat-qilish-bo-yicha-o-qu>



"Qizilqum fosforit kompleksi" MChJ "Tashkura" karyerida avariyalı vaziyatlarni chegaralash va bartaraf etish bo'yicha o'quv mashg'uloti o'tkazildi. O'quv mashg'ulotida uchastka, dispatcherlik xizmati, maxsus ixtisoslashtirilgan xizmatlar, yong'in qutqaruv qismi, tibbiyot bo'limi xodimlarining yuzaga kelgan avariyalı vaziyatni bartaraf etishga tayyorligini tekshirish, jalb etilgan xodimlarning ixtisoslashtirilgan xizmatlar bilan o'zaro hamkorlikdagi harakatlarini o'zlashtirish, avariyanı bartaraf etish uchun tegishli vositalar bilan to'g'ri ishslash ko'nikmalarini oshirish amaliyoti ko'rsatib berildi.

Mashg'ulot yakunida kuzatuvchi mutaxassislar tomonidan xulosalar berilib, yuzaga kelgan kamchiliklar va natijalar to'g'risida tavsiyalar berishdi.





"Qizilqum fosforit kompleksi" MChJ Matbuot xizmati